

KASBIY STANDART
Arxiv hujjatlarini saqlash va arxiv faoliyati sohasi
(kasbiy standartning nomi)

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart tegishli kasblar uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, kasbiy malakalarni mustaqil baholash, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

arxiv — arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi muassasa;

arxiv ishi — arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etish bo'yicha faoliyat;

arxiv hujjatlari — fuqarolar, jamiyat va davlat uchun ahamiyati bois saqlanishi lozim bo'lgan matnli, qo'lyozma va mashinada o'qiladigan hujjatlar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, fotosuratlar, fotografiya plyonkalari, chizmalar, sxemalar, xaritalar, shuningdek boshqa moddiy jismlardagi yozuvlar;

ish yuritish — yuridik shaxsning hujjatlashtirish va rasmiy hujjatlar bilan ishlashni tashkil etish bo'yicha faoliyatini ta'minlab beruvchi jarayon;

milliy arxiv fondi — O'zbekiston xalqining moddiy va ma'naviy hayotini aks ettirgan, tarixiy, ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan arxiv hujjatlarining tarixan tarkib topgan va doimo boyitib boriladigan majmui;

idoraviy arxiv — yuridik shaxsning arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linmasi;

arxiv fondi — yuridik yoki jismoniy shaxslar faoliyati natijasida yaratilgan, tarixiy yoki mantiqiy jihatdan o'zaro aloqador arxiv hujjatlari majmui;

arxiv nusxasi — tegishli tartibda tasdiqlangan, arxiv shifri va saqlov birligi varaqlarining raqamlari ko'rsatilgan arxiv hujjatining so'zma-so'z bayon etilgan nusxasi;

arxiv hujjatlarini saqlash — arxivlarda arxiv hujjatlarining but saqlanishini ta'minlashga doir chora-tadbirlar majmui;

arxiv hujjatlaridan foydalanish — arxiv hujjatlarini xizmat, ishlab chiqarish, ilmiy, madaniy, ma'rifiy, ta'lim maqsadida va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa maqsadlarda arxivlar tomonidan foydalanuvchilarga taqdim etish;

elektron nusxa — an'anaviy asosdagi (qog'oz, video, audio kasseta, kinolenta va boshqalar) hujjatlarni raqamlashtirish orqali ularning yaratilgan elektron shakli, asl nusxada mavjud bo'lgan axborotni o'qish yoki ko'rish (eshitish) imkonini beruvchi elektron ko'chirma nusxasi;

jamlash — arxivni arxiv hujjatlari bilan muntazam to'ldirib borish maqsadida amalga oshiriluvchi arxiv fondi doirasida arxiv hujjatlarini fondlashtirish hamda tashkil etish va jamlash manbalaridan ularni qabul qilib olish maqsadida yo'nalishi va darajasi bo'yicha zaruriy arxiv hujjatlari bilan to'ldirib borishga doir ishlar majmui.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5834-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida" PF-80-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4463-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish to'g'risida"gi 101-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarori (IFUT-2);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2024-yil 14-oktabrdagi 347-um-son buyrug'i;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi direktorining 2024-yil 1-noyabrdagi 103-son buyrug'i.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

m/d – malaka darajasi;

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Arxiv hujjatlarini saqlash va arxiv faoliyati sohasi	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Jamiyatni retrospektiv axborot bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini saqlash, jamlash, hisobga olish va ulardan foydalanish bo'yicha belgilangan tartibda ishlarni amalga oshirish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	S – seksiyasi: San'at, sport va dam olish; 91 – Kutubxonalar, arxivlar, muzeylar va boshqa madaniyat ob'yektlari; 91.1 – Kutubxona va arxiv faoliyati; 91.12 – Arxiv faoliyati; 91.12.0 – Arxiv faoliyati.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Arxiv hujjatlarini saqlash va hisobga olish, Arxiv hujjatlarini jamlash, hujjatlaridan foydalanishni tashkil etish, hujjatlarini restavratsiya qilish, muqovalash, tikish bo'yicha ishlar majmuini amalga oshirish, hujjatlarni nusxa ko'chirish uchun tayyorlash, nusxalar sifatini tekshirish va hisobini olib borish, arxiv sohasi va boshqa tashkilotlarning mutaxassislari uchun ko'nikma va bilimlar talablarini keltirish	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		73230008 Hujjatlarni muqovalovchi	2
		81320047 Mikrofilmlar yaratish va nusxa ko'chirish apparatlari operatori	3
		33410003 Arxivarius (o'rta malakali)	5
		26211001 Arxeograf	6
		26211003 Arxiv hujjatlarini tiklovchi (restavrator)	6
		26211005 Arxivchi	6
		26211008 Jamg'armalarni saqllovchi	6

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	73230008 Hujjatlarni muqovalovchi	A1.2	Muqovalash, tikish bo'yicha ishlar majmuini amalga oshirish	A1.01.2	Hujjatlarni muqovalashga tayyorlash va varaqlarini tekshirish
				A1.02.2	Muqovalangan va tikilgan hujjatlarni sifatini nazorat qilish
2	81320047 Mikrofilmlar yaratish va nusxa ko'chirish apparatlari operatori	B1.3	Hujjatlarni nusxa ko'chirish uchun tayyorlash, nusxalar sifatini tekshirish va hisobini olib borish	B1.01.3	Nusxa ko'chirish apparatlarini tayyorlash, yaratilgan nusxalar sifatini tekshirish
		B2.3	Arxiv kino hujjatlarning texnik holatini aniqlash, matni so'nib borayotgan hujjatlarni mikrofilmlashti-rish bo'yicha ishlar majmuini amalga oshirish, mikrofilmlardan nusxa olish va ko'paytirish	B2.01.3	Arxiv kino hujjatlarning texnik holatini tekshirish, ta'mirlangan, tozalangan va restavratsiya qilingan kino hujjatlarning sifatini tekshirish
				B2.02.3	Mikrofilmlashtirish apparatlarini ishga tayyorlash, suratga olish apparatida hujjatlarni suratga olish, mikrofilmlarni ko'paytirish ishlarini amalga oshirish
3	33410003 Arxivarius (o'rta malakali)	D1.5	Arxiv hujjatlarini qabul qilish, tasniflash, tikish va muqovalashga tayyorlash	D1.01.5	Arxivga kelib tushgan hujjatlarni qabul qilish va qayd etish
				D1.02.5	Hujjatlarni tasniflash va tizimlash, tikish, muqovalash va sahifalashga tayyorlash
		D2.5	Elektron arxiv bilan ishlash	D2.01.5	Hujjatlarni elektron bazalarga kiritish, raqamlashtirish jarayonida ishtirok etish
		D3.5	Arxiv hujjatlarini saqlash, foydalanish, arxiv hujjatlari bo'yicha hisobot tayyorlash	D3.01.5	Arxivda hujjatlarni joylashtirish va saqlanishini ta'minlash
				D3.02.5	Arxiv hujjatlaridan foydalanishni tashkil etish va arxiv hujjatlari hisobining nazoratini olib borish

4	26211001 Arxeograf	E1.6	Arxiv ishini yuritish (O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlaridan foydalanishni tashkil etish)	E1.01.6	Hujjatlarni e'lon qilish va ulardan foydalanish bo'yicha kompleks ishlarni amalga oshirish
				E1.02.6	Axborot hujjatlaridan ilmiy, o'quv, iqtisodiy, madaniy hamda ijtimoiy-huquqiy maqsadlarda foydalanish uchun kompleks ishlarni olib borish
				E1.03.6	Istiqbolli hujjatli nashrlar mavzusini ishlab chiqish
		E2.6	Hujjatlarning tashqi belgilarini o'rganish	E2.01.6	Hujjatlarni o'qish, sanasini aniqlash va tavsiflashda ishtirok etish
				E2.02.6	Tarixiy hujjatlar bilan ishlash
5	26211003 Arxiv hujjatlarini tiklovchi (restavrator)	F1.6	Arxiv hujjatlarini restavratsiya qilish	F1.01.6	Kichik shikastlangan bosma hujjatlarni profilaktik saqlash va tiklash
				F1.02.6	Birinchi va ikkinchi darajadagi ta'mirtalab yig'ma jildlarni restavratsiya qilish, muqovalash va tikish ishlarini olib borish
		F2.6	Noyob va alohida qimmatli arxiv hujjatlari, shuningdek oliy badiiy va tarixiy ahamiyatli asarlar bilan tiklash ishlarini amalga oshirish	F2.01.6	Qog'oz va karton qoplamalarda shikastlangan bosma grafikallarni profilaktik saqlash va tiklash
				F2.02.6	O'ta murakkab, murakkab va o'rta murakkablikdagi tiklash va buzilishlardan saqlash ishlarini bajarish
		F3.6	Qog'oz asosidagi qo'lyozmalarning jismoniy zararlanish holatini baholash, konservatsiya va restavratsiya amaliyotlarini belgilash, muqovalash, tikish bo'yicha ishlar majmuini amalga oshirish	F3.01.6	Hujjatning muhimlik darajasini aniqlash va stabilashtiruvchi konsevasiya amaliyotlari orqali tegishli chora-tadbirlarni belgilash
				F3.02.6	Muqovaning qayta tiklash imkoni bo'lgan qismlarini ta'mirlash, rang berish, qayta tiklash imkoni bo'lmagan qismlariga mos materiallar asosida muvofiq keluvchi muqovani yasash
6	26211005 Arxivchi	G1.6	Arxiv hujjatlarini saqlash va hisobga olish	G1.01.6	Saqlash sharoiti bo'yicha kompleks ishlarni amalga oshirish
				G1.02.6	Arxiv hujjatlarini fondlashtirish
				G1.03.6	Arxiv hujjatlarini davlat hisobiga olish, arxiv hujjatlarining hisobini tashkil etish

		G2.6	Arxiv hujjatlarini jamlash, hujjatlaridan foydalanishni tashkil etish	G2.01.6	Arxivlarda arxiv hujjatlarini bilan jamlash, arxiv hujjatlaridan foydalanish bo'yicha kompleks ishlarni amalga oshirish
				G2.02.6	Hujjatlarni qimmatligini ekspertizadan o'tkazish, arxiv hujjatlarini tavsiflash va ilmiy-ma'lumotnoma apparatini tashkil etish bo'yicha kompleks ishlarni amalga oshirish
7	26211008 Jamg'armalarni saqlovchi	H1.6	Arxiv hujjatlari muhofazasini ta'minlash va foydalanishni tashkil etish	H1.01.6	Hujjatlarni muhofaza qilishni ta'minlash va davlat hisobini yuritish bo'yicha kompleks ishlarni tashkil etish
				H1.02.6	Arxivda hujjatlarning qimmatligini aniqlash bo'yicha kompleks ishlarni amalga oshirish
		H2.6	Arxiv ishi sohasiga oid yagona davlat siyosati (O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish)ni tatbiq etish	H2.01.6	Arxiv hujjatlarini tavsiflash, ilmiy-ma'lumotnoma apparatini yaratish bo'yicha kompleks ishlarni amalga oshirish
				H2.02.6	Arxiv hujjatlarini saqlash va davlat hisobini yuritish ishlarini amalga oshirish faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Hujjatlarni muqovalovchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	73230	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Maxsus ruxsatlar: 18 yoshga to'lgan bo'lishi; Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi. Ishga munosabat va xulq-atvor: - kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - o'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, o'z millati va vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	umumiy o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ta'lim tashkilotlari negizida qisqa muddatli kurs va amaliy tajriba talab etiladi.	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	—	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	—	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Arxiv hujjatlarini tiklovchi (restavrator)
	6	Jamg'armalarni saqllovchi

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.2 Muqovalash, tikish bo'yicha ishlar majmuini amalga oshirish	A1.01.2 Hujjatlarni muqovalashga tayyorlash va varaqlarini tekshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Hujjatlarni qabul qilish va qayd etish;
		2. Hujjatlarni to'liqligini tekshirish;
		3. Hujjatlarni saralash va toifalash;
		4. Hujjatlarning varaqlarini holatini tekshirish, tozalash;
		5. Muqovalash materiallarini (qog'oz, karton, kley va boshqa vositalarni) tayyorlash;
		6. Arxiv hujjatlarini saqlash talablariga mos ravishda qog'oz sifatini belgilanishini ta'minlash;
		7. Hujjatlarni muqovalash;
		8. Hujjatni himoyalovchi materialga joylashtirish, pishiqlash, raqamlash;
		9. Muqovada hujjat nomi, indeksi, saqlash muddatini belgilash;
		10. Inventarizatsiya daftarlarini to'ldirish;
		11. Muqovalangan hujjatlarni belgilangan tartibda saqlash joyiga topshirish va ro'yxatga olish.
		Ko'nikmalar:
		Hujjatlarni qabul qilish va to'g'ri qayd etish;
		Varaqlarni vizual va texnik holatini baholash;
		Tozalash va sanitar nazoratni amalga oshirish;
		Qo'shimcha buyumlarni olib tashlash;
		Xronologik va mavzuli ketma-ketlikni tiklash;
		Texnik tayyorgarlik (muqovalashga tayyorlash);
		Ro'yxatlash va yozma etiketka tayyorlash;
		Hujjatni sinov tekshiruviga tayyorlash va xatolarni bartaraf etish;
		Tekshiruv natijalarini qayd etish, akt yoki jurnal yuritish.
		Bilimlar:
		Arxiv hujjatlarining turlari, tuzilishi va tasnifi;
		Arxiv hujjatlarini saqlash va qayd etish tartiblari;
		Arxivda hujjatlarni tayyorlash, qabul qilish va joylashtirish me'yori;
		Hujjatlarni saqlash va qayta tiklash bo'yicha qonunchilik va me'yoriy hujjatlar;
		Qog'oz turlari (ofset, kalka, karton, yog'liq qog'oz va h.k.) va ularning saqlanish xususiyatlari;
		Metall, kley, plastik va boshqa elementlarning hujjatga ta'siri;
		Muqovalashda ishlatiladigan materiallar turlari va ularni to'g'ri qo'llash qoidalari;
		Mexanik shikastlar va nomuvofiq holatlarning turlari va ularning asosiy belgilari;
		Gigiyena va xavfsizlik qoidalari.

	A1.02.2 Muqovalangan va tikilgan hujjatlarni sifatini nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Muqova va tikuv sifatini ko'z bilan tekshirish, mayda nuqsonlarni (chirigan, ajralgan, yoki yetishmaydigan varaqlar) aniqlash;
		2. Hujjatlarning tikilishi (nitka, skrepka, kley) mustahkamligini tekshirish, harakat vaqtida tarqalib ketmasligini oldini olish;
		3. Karton, plastik yoki qog'oz mustahkamligi, chiqib ketish, yorilish, namlanish holatlari yo'qligiga ishonch hosil qilish;
		4. Hujjat raqami, indeksi, nomi, sanasi va saqlash muddati haqidagi yozuvlar to'liq va to'g'ri yozilganligini tekshirish;
		5. Hujjatlar to'liqligi, varaqlar yetishmasligi, nusxalar aralashib ketmaganligi, tuzilmada xatolar bor yoki yo'qligini aniqlash;
		6. Qog'ozlarning sarg'ayishi, chiriganligi, pishqlik darajasi, mexanik shikastlarni baholash;
		7. Hujjatlarni zararkunandalardan, namlikdan yoki boshqa turli zararlanish holatlaridan xoli ekanini tekshirish;
		8. Muqovalash va tikish ishlarining arxiv va standart hujjatlarga muvofiq bajarilganini nazorat qilish;
		9. Aniqlangan nuqsonlar bo'yicha akt tuzish, mas'ullarga xabar berish va qayta ishlash uchun topshirish;
		10. Nazoratdan o'tkazilgan hujjatlar ro'yxati, tekshiruv natijalarini hisobot daftariga kiritish.
		Ko'nikmalar:
		Hujjatlar tuzilishi va tarkibiy qismlari tartibini tushunish;
		Muqova va tikish ishlari texnikasi va texnologiyasini tushunish;
		Hujjatlarni vizual tekshirish va baholash;
		Hujjat sahifalarining ketma-ketligini oddiy usullar bilan tekshirish;
		Sifat nazorati qaydlarini yuritish va xulosa chiqara olish;
		Arxiv talablariga muvofiq ish olib borish;
		Toza, aniq va gigiyena talablariga muvofiq ishlash;
		Kommunikativ va hamkorlikda ishlash.
		Bilimlar:
		Arxiv hujjatlarining turlari va ularning tasnifi;
		Arxivda saqlash qoidalari, shartlari va hujjatlar bilan ishlash tartibi;
		Hujjatlarni saqlash va tiklash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar;
		Qog'oz, muqova va boshqa materiallar xususiyatlari;
		Mexanik va vizual shikastlarni aniqlash usullari;
		Tikish va muqovalash jarayonining asosiy bosqichlari;
		Hujjatlarni raqamlash va belgilovchi yozuvlarni tuzish tartiblari.
		Gigiyena va xavfsizlik qoidalari.

	Mas’uliyat va mustaqillik:	1. Arxiv ishlarini bajarish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy masalalarni hal etish; 2. O‘z ishlarida yaxshi natijalarga erishish uchun boshqa arxivlarning ilg‘or tajribalaridan foydalanish; 3. Zararlangan hujjatlarni aniqlash.
Texnik va/yoki texnologik talab		1. Hujjatlarni saqlash bo‘yicha standart talablarni bilishi; 2. Arxiv kino hujjatlar bilan ishlash qoidalarini bilish; 3. Texnik va yong‘in xavfsizligi qoidalarini bilish, ularga rioya etish; 4. Kinotasmalarni ishlab chiqarish va ishlov berish ishlarini bilishi; 5. Texnika vositalaridan foydalanishda arxiv sohasidagi mamlakatimiz va xorij tajribalarini o‘rganib borish; 6. Ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etish; 7. Mehnat qonunchiligi asoslarini bilish; 8. Kino hujjatlar tekshirish ishlarida qo‘llanadigan zamonaviy texnika vositalarni bilish; 9. Mehnat muhofazasi, yong‘in va texnika xavfsizligi qoidalarini bilish.

Kasbning nomi:	Mikrofilmlar yaratish va nusxa ko'chirish apparatlari operatori	
Mashg'ulot nomining kodi:	81320	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar	Talab etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; Jamoda va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; Umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, o'z millatini va vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	3-daraja uchun – boshlang'ich professional ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	–	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	–	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3 Hujjatlarni nusxa ko'chirish uchun tayyorlash, nusxalar sifatini tekshirish va hisobini olib borish	B1.01.3 Nusxa ko'chirish apparatlarini tayyorlash, yaratilgan nusxalar sifatini tekshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Nusxa olish asbob-uskunalarini ishga tayyorlash;
		2. Nusxa olish asbob-uskunalarining profilaktik kuzatuvini olib borish;
		3. Hujjatlarni nusxa olish uchun qabul qilish;
		4. Hujjatlarni nusxa olish uchun tayyorlash;
		5. Hujjatlarni ko'zdan kechirish;
		6. Zararlangan hujjatlarni aniqlash;
		7. Nusxa olinishini ta'minlash;
		8. O'rnatilgan tartibdagi hisobotlarni yuritish va taqdim etish;
		9. Tashkilot ishini yaxshilash bo'yicha takliflar berish.
		Ko'nikmalar:
		Arxivda saqlanayotgan hujjatlar majmuining tarkibi va mazmunini bilish;
		Zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;
		Hujjatlarni saqlash bo'yicha standart talablarni bilish;
		Arxiv foto hujjatlar bilan ishlash qoidalarini bilish;
		Nusxa ko'chirish asbob-uskunalaridan foydalanish;
		Uslubiy va normativ hujjatlarni amalda qo'llash;
		Amaliy ishlarda avtomatlashtirilgan arxiv texnologiyasidan foydalanish;
		Texnik va yong'in xavfsizligi qoidalarini bilish, ularga rioya etish.
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasining arxiv ishi sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar, qonun osti va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
		Nusxa ko'chirish apparatlarining turlari, ularning tuzilishi va ishlash prinsiplari;
		Nusxa olish asbob-uskunalarini ishga tayyorlash, sozlash va profilaktik kuzatuv qoidalarini;
		Hujjatlarni nusxa olish uchun tayyorlash talablari, tartibi va texnologik ketma-ketligi;
		Hujjatlarni ko'zdan kechirish, ularning holatini baholash va zararlangan hujjatlarni aniqlash mezonlari;
		Nusxa ko'chirish jarayonining sifat ko'rsatkichlari va ularni nazorat qilish usullari;
		Arxivda saqlanayotgan hujjatlar majmuining tarkibi, mazmuni va ularga qo'yiladigan texnik talablar;
		Hujjatlarni saqlash va tiklash bo'yicha standart, normativ va uslubiy talablar;
		Arxiv foto hujjatlar bilan ishlash qoidalarini va maxsus talablari;

		Elektron va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tamoyillari va xavfsizlik me'yorlari;
		Avtomatlashtirilgan arxiv texnologiyalari, skanerlash va nusxa olish jarayonlarida qo'llaniladigan dasturiy vositalar imkoniyatlari;
		Hisobotlarni yuritish, hujjatlashtirish va axborotlarni rasmiy tartibda taqdim etish talablari
		Nusxa ko'chirish apparatlarining turlari, ularning tuzilishi va ishlash prinsiplari;
		Nusxa olish asbob-uskunalarini ishga tayyorlash, sozlash va profilaktik kuzatuv qoidalari;
		Hujjatlarni nusxa olish uchun tayyorlash talablari, tartibi va texnologik ketma-ketligi;
		Hujjatlarni ko'zdan kechirish, ularning holatini baholash va zararlangan hujjatlarni aniqlash mezonlari;
		Nusxa ko'chirish jarayonining sifat ko'rsatkichlari va ularni nazorat qilish usullari;
B2.3 Arxiv kino hujjatlarning texnik holatini aniqlash, matni so'nib borayotgan hujjatlarni mikrofilmlashtirish bo'yicha ishlar majmuini amalga oshirish, mikrofilmlardan nusxa olish va ko'paytirish	B2.01.3 Arxiv kino hujjatlarning texnik holatini tekshirish, ta'mirlangan, tozalangan va restavratsiya qilingan kino hujjatlarning sifatini tekshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Mikrofilmlashtirish apparatlarini ishga tayyorlash;
		2. Mikrofilmlashtirish apparatlarning profilaktik kuzatuvini olib borish;
		3. Hujjatlarni mikrofilmlashtirish uchun qabul qilish;
		4. Hujjatlarni mikrofilmlashtirish uchun tayyorlash;
		5. Hujjatlarni ko'zdan kechirish;
		6. Zararlangan hujjatlarni aniqlash;
		7. Svetofiltrlar yordamida nusxa olinishini ta'minlash;
		8. O'rnatilgan tartibdagi hisobotlarni yuritish va taqdim etish;
		9. Tashkilot ishini yaxshilash bo'yicha takliflar berish.
		Ko'nikmalar:
		Arxivda saqlanayotgan hujjatlar majmuining tarkibi va mazmunini bilish;
		Hujjatlarni saqlash bo'yicha standart talablarni bilish;
		Tasmalar bilan ishlash qoidalarni bilish;
		Texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarni bilish, ularga rioya etish;
		Svetofiltr yordamida mikrofilmlashtirish asbob-uskunalaridan foydalanish;
		Uslubiy va normativ hujjatlarni amalda qo'llash;
		O'z ishlarida yaxshi natijalarga erishish uchun boshqa arxivlarning ilg'or tajribalaridan foydalanish;
		Amaliy ishlarda avtomatlashtirilgan arxiv texnologiyasidan foydalanish;
		Zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

		Bilimlar: O'zbekiston Respublikasining arxiv ishi sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar, qonun osti va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar; Faoliyat sohasini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar; Tarkibiy bo'linma faoliyatiga taalluqli me'yoriy-uslubiy hujjatlar, boshqa yo'riqnoma hujjatlari va materiallari; Tarkibiy bo'linma (tashkilot) faoliyatining ma'lum yo'nalishi bo'yicha mos bilimlar sohasining asosiy ilmiy va amaliy masalalari; Mehnatni boshqarishni tashkil etishning usullarini hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, axborotlarga ishlov berish; Kommunikatsiya va aloqa, kompyuter texnikalarining zamonaviy vositalari; Tegishli muammolarning yechimi bo'yicha ilg'or tajribalar; Hujjatlarni saqlash rejimlarini, hujjatlar bilan ishlash, ularni hisobga olish va foydalanish bo'yicha tartib-qoidalar; Arxivda saqlanayotgan milliy arxiv fondi hujjatlari majmuining tarkibi va mazmuni; Arxiv sohasidagi mamlakatimiz va xorij tajribalari; Ichki mehnat tartibi qoidalar; Mehnat qonunchiligi asoslari; Zamonaviy kompyuter texnikasini qo'llash asoslari; Mehnat muhofazasi, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalar.
	B2.02.3 Mikrofilmashtirish apparatlarini ishga tayyorlash, suratga olish apparatida hujjatlarni suratga olish, mikrofilmlarni ko'paytirish ishlarini amalga oshirish	Mehnat harakatlari: 1. Mikrofilmashtirish apparatlarini ishga tayyorlash; 2. Mikrofilmashtirish apparatlarning profilaktik kuzatuvini olib borish; 3. Hujjatlarni mikrofilmashtirish uchun qabul qilish; 4. Hujjatlarni mikrofilmashtirish uchun tayyorlash; 5. Hujjatlarni ko'zdan kechirish; 6. Zararlangan hujjatlarni aniqlash; 7. Svetofiltrlar yordamida nusxa olinishini ta'minlash; 8. O'rnatilgan tartibdagi hisobotlarni yuritish va taqdim etish; 9. Tashkilot ishini yaxshilash bo'yicha bo'lim (boshqarma) boshlig'iga takliflar berish. Ko'nikmalar: Arxivda saqlanayotgan hujjatlar majmuining tarkibi va mazmunini aniqlash; Hujjatlarni saqlash bo'yicha standart talablarni bilish;

		Tasmalar bilan ishlash qoidalari;
		Texnik va yong'in xavfsizligi qoidalarni bilish, ularga rioya etish;
		Svetofiltr yordamida mikrofilmlashtirish asbob-uskunalaridan foydalanish;
		Uslubiy va normativ hujjatlarni amalda qo'llash;
		O'z ishlarida yaxshi natijalarga erishish uchun boshqa arxivlarning ilg'or tajribalaridan foydalanish;
		Amaliy ishlarda avtomatlashtirilgan arxiv texnologiyasidan foydalanish;
		Zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasining arxiv ishi sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar, qonun osti va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
		Faoliyat sohasini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
		Tarkibiy bo'linma faoliyatiga taalluqli me'yoriy-uslubiy hujjatlar, boshqa yo'riqnoma hujjatlari va materiallari;
		Tarkibiy bo'linma (tashkilot) faoliyatining ma'lum yo'nalishi bo'yicha mos bilimlar sohasining asosiy ilmiy va amaliy masalalari;
		Mehnatni boshqarishni tashkil etishning usullarini hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, axborotlarga ishlov berish;
		Kommunikatsiya va aloqa, kompyuter texnikalarining zamonaviy vositalari;
		Tegishli muammolarning yechimi bo'yicha ilg'or tajribalar;
		Hujjatlarni saqlash rejimlarini, hujjatlar bilan ishlash, ularni hisobga olish va foydalanish bo'yicha tartib-qoidalar;
		Arxivda saqlanayotgan milliy arxiv fondi hujjatlari majmuining tarkibi va mazmuni;
		Arxiv sohasidagi mamlakatimiz va xorij tajribalari;
		Ichki mehnat tartibi qoidalari;
		Mehnat qonunchiligi asoslari;
		Zamonaviy kompyuter texnikasini qo'llash asoslari;
		Mehnat muhofazasi, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalari.
	Mas'uliyat mustaqillik: va	1. Kino hujjatlarning texnik holatini tekshirish mustaqil ravishda amalga oshirish;
		2. Ta'mirlangan, tozalangan va restavratsiya qilingan kino hujjatlarning sifatini tekshirish;
		3. Zararlangan hujjatlarni aniqlash.

Texnik va/yoki texnologik talab	1. Hujjatlarni saqlash bo'yicha standart talablarni bilishi; 2. Arxiv kino hujjatlar bilan ishlash qoidalarini bilish; 3. Texnik va yong'in xavfsizligi qoidalarini bilish, ularga rioya etish; 4. Kinotasmalarni ishlab chiqarish va ishlov berish ishlarini bilishi; 5. Texnika vositalaridan foydalanishda arxiv sohasidagi mamlakatimiz va xorij tajribalarini o'rganib borish; 6. Ichki mehnat tartibi qoidalarini rioya etish; 7. Mehnat qonunchiligi asoslarini bilish; 8. Kino hujjatlarni tekshirish ishlarida qo'llanadigan zamonaviy texnikasini bilish; 9. Mehnat muhofazasi, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalarini bilish.
--	--

Kasbning nomi:	Arxivarius (o'rta malakali)
Mashg'ulot nomining kodi:	33410
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar	Talab etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: 18 yoshga to'lganligi; Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tganligi; Maxsus kasbiy ma'lumotga ega bo'lishi. Ishga munosabat va xulq-atvor: Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; Jamoda va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ragon bayon qilish; Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim
Norasmiiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	o'rta professional ta'lim, umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim, norasmiiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	—
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	—

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:		TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
D1.5 Arxiv hujjatlarini qabul qilish, tasniflash, tikish va muqovalashga tayyorlash	D1.01.5 Arxivga kelib tushgan hujjatlarni qabul qilish va qayd etish	O'qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Arxivga topshirilayotgan, ish yuritish jarayonida yakunlangan hujjatlarni qabul qilish va rasmiylashtirish (topshirish-qabul qilish dalolatnomasi, ro'yxat, buyruq);	
		2. Hujjatlarni qabul qilish jarayonida jamlangan hujjatlar miqdori, holati va saqlash muddatini tekshirish;	
		3. Hujjatlarning to'liqligi, jamlanganligi, sahifalanganligi va rasmiy rekvizitlarining mavjudligini tekshirish;	
		4. Kamchiliklar aniqlansa, ularni bartaraf etish uchun topshiruvchi tomonga qaytarish yoki dalolatnoma tuzish orqali qayd etish;	
		5. Har bir arxiv ishini maxsus jurnal yoki elektron tizimda qayd etish;	
		6. Elektron arxiv bazalari mavjud bo'lsa, ma'lumotlar bazasiga kiritish (Access, Excel, my.archive va h.k.);	
		7. Saqlash muddatlarini belgilash;	
		8. Qabul qilingan hujjatlarni rasmiylashtirish;	
		9. Hujjatlarni vaqtinchalik saqlashga joylashtirish.	
		Ko'nikmalar:	
		Tashkiliy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish;	
		Mehnatda aniqlik, mas'uliyat va diqqatlilik;	
		Hujjatlarni saralash, qayd etish va elektron ro'yxat yuritish;	
		Uslubiy va normativ hujjatlarni amalda qo'llash;	
		Zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash.	
		Bilimlar:	
		Arxiv ishining asoslari va huquqiy asoslari;	
		Idoraviy hujjatlar bilan ishlash asoslari;	
		Hujjatlar nomenklaturasi va saqlash muddatlari;	
		Hujjatlarni tasniflash va qayd qilish tartibi;	
		Hujjatlar texnik holatini tekshirish va baholash mezonlari;	
		Elektron arxiv va raqamlashtirish asoslari (agar mavjud bo'lsa);	
		Xat va xizmat yozishmalar orqali xabardor qilish tartibi;	

		So'rovlar, dalolatnomalar va aktlar orqali arxiv harakati;
		Arxivning ilmiy-ma'lumotnoma apparati tizimi;
		Sohaga oid ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlanmalar;
		Arxivning axborot-qidiruv tizimlarini amalga oshirish vositalari;
		Zamonaviy kompyuter texnikasini qo'llash asoslari;
		Mehnat harakatlari:
D1.02.5 Hujjatlarni tasniflash va tizimlash, tikish, muqovalash va sahifalashga tayyorlash		1. Har bir ishning mazmuniga ko'ra xronologik, mavzuli yoki tuzilma asosida ajratish;
		2. Hujjatlar yig'ma-jildlari nomenklaturasi ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish, ularni shakllantirish jarayonini nazorat qilish;
		3. Hujjatlar nomenklaturasiga asosan ish guruhlarini shakllantirish;
		4. Har bir ishni varaqlab chiqib, sahifalarni to'g'ri ketma-ketlikda raqamlash;
		5. Sahifalar sonini dalolatnoma orqali tasdiqlash (sahifalash dalolatnomasini tuzish);
		6. Nomuvofiq yoki yetishmayotgan sahifalar aniqlansa, tegishli qaydlar yozib borish;
		7. Raqamlangan varaqlarni to'g'ri ketma-ket joylashtirish;
		8. Qog'ozlarning chetini tikish joyidan teskari tikmaslik uchun tekshirish;
		9. Jipslash uchun kerakli ip, igna, qaychi va boshqa anjomlarni tayyorlash;
		10. Jipslangan hujjatni muqova uchun tayyorlash (tomonlarini to'g'rilash, tozalash);
		11. Muqova qoplamasiga ish indeksi, nomi, tashkilot nomi, yil, saqlash muddati kabi ma'lumotlarni yozish;
		12. Muqova yozuvini belgilangan talablarga ko'ra rasmiylashtirish;
		13. Qog'oz yuzasidagi chang, kir yoki kapalak izlarini aniqlash va ehtiyotkorlik bilan tozalash;
		14. Tayyor bo'lgan ishlarni belgilangan joyga joylashtirish (papkalar, karton qutilar yoki stellaj);
		15. Tayyor bo'lgan ishlarni elektron ro'yxatga kiritish va tegishli qaydlarni yuritish.
		Ko'nikmalar:
		Tashkiliy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish;
		Mehnatda aniqlik, mas'uliyat va diqqat;
		Hujjatlarni saralash, qayd etish va elektron ro'yxat yuritish tajribasi;
		Uslubiy va normativ hujjatlarni amalda qo'llash;
		Zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash;

		Bilimlar:
		Arxiv ishining asoslari va huquqiy asoslari;
		Idoraviy hujjatlar bilan ishlash asoslari;
		Hujjatlar nomenklaturasi va saqlash muddatlari;
		Hujjatlarni tasniflash va qayd qilish tartibi;
		Hujjatlar texnik holatini tekshirish va baholash;
		Elektron arxiv va raqamlashtirish asoslari (agar mavjud bo'lsa);
		Xat va xizmat yozishmalar orqali xabardor qilish;
		So'rovlar, dalolatnomalar va aktlar orqali arxiv ishi yuritilishini;
		Arxivning ilmiy-ma'lumotnoma apparati tizimini;
		Sohaga oid ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlanmalarni;
		Arxivning axborot-qidiruv tizimlarini amalga oshirish vositalarini;
		Zamonaviy kompyuter texnikasini qo'llash asoslarini;
		Mehnat muhofazasi, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalarini;
D2.5 Elektron arxiv bilan ishlash	D2.01.5 Hujjatlarni elektron bazalarga kiritish, raqamlashtirish jarayonida ishtirok etish	Mehnat harakatlari:
		1. Raqamlashtiriladigan hujjatlar ro'yxatini shakllantirish va tekshirish;
		2. Hujjatlarning holatini tekshirish, changdan tozalash, sinov sahifalarini aniqlash, buklangan yoki shikastlangan varaqlarni tuzatish;
		3. Skanerlash uchun belgilangan format va tartibda joylashtirish (sahifalar ketma-ketligi, to'liqligi);
		4. Belgilangan parametrlar asosida (rezolyutsiya, format: PDF, TIFF, JPEG) skanerlash uskunalarini to'g'ri sozlash;
		5. Har bir ishni alohida fayl sifatida nomlash (indeks, sana, bo'lim nomi bo'yicha);
		6. Skanerlangan fayllarni belgilab qo'yish va belgilangan muddatgacha saqlash papkalariga joylashtirish;
		7. Har bir raqamlangan hujjat haqidagi metama'lumotlarni kiritish (ish indeksi, nomi, tashkilot bo'limi, yaratish sanasi, saqlash muddati va h.k.);
		8. Elektron arxiv tizimlari bilan ishlash;
		9. Har bir faylni belgilangan strukturaga muvofiq joylashtirish (katalog, papka, ish indeksi bo'yicha);
		10. Dublikatlar, noto'g'ri fayllar, noto'liq skanerlangan sahifalar bo'yicha tahlil yuritish;
		11. Topilgan xatolarni qayd etish va tuzatish choralarini ko'rish;
		12. Skanerlangan va bazaga kiritilgan hujjatlarni qayta jipslash, muqovalash va joyiga qaytarish;
		13. Elektron reyestr va hisobot fayllarini shakllantirish;

		14. Raqamli nusxalarni USB, disk, server yoki bulutli arxivda saqlash.
		Ko'nikmalar:
		Skanerlash uchun hujjatlarni saralash, ketma-ketlikka keltirish, changdan tozalash;
		Hujjatlarning texnik holatini baholash, shikastlangan varaqlarni ajratib olish;
		Hujjatlarni saralash, qayd etish va elektron ro'yxat yuritish;
		Uslubiy va normativ hujjatlarni amalda qo'llash;
		Skanerlash uskunalari bilan ishlash;
		Elektron ma'lumotlar bazasiga ma'lumot kiritish;
		Fayllarni nomlash va to'g'ri strukturaga joylashtirish;
		Zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash;
